



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
davlat va huquq asoslari
fani o'qituvchisi*

_____ning
*20__-20__-o'quv yiliga 9-sinflar
uchun II yarim yillik*

***DARS
ISHLANMALARI***

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 9-sinf davlat va huquq asoslari fanidan
II yarim yillik taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari. (BSB topshirig‘ining baholash mezonini e‘lon qilish)	1		
2.	Shaxsiy huquq va erkinliklar	1		
3.	Siyosiy huquqlar	1		
4.	Iqtisodiy va madaniy huquqlar	1		
5.	Ijtimoiy huquqlar	1		
6.	Ekologik huquqlar	1		
7.	Inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi	1		
8.	O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchlari	1		
9.	BSB-2. Keys topshirig‘i (50 ball)	1		
10.	Ijodiy faoliyat	1		
11.	Jamiyat va shaxs. Fuqarolik jamiyati	1		
12.	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi	1		
13.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti	1		
14.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi	1		
15.	Mahalliy davlat hokimiyati	1		
16.	O‘zbekiston Respublikasining sud hokimiyati	1		
17.	ChSB-2. (40 ball)	1		
18.	Ijodiy faoliyat	1		

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari. (BSB topshirig‘ining baholash mezonini e‘lon qilish)

Darsning maqsadi:

Ta‘limiy: darsda ayni paytda dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning muttasil o‘zgarib borishi hamda integratsiyalashuvi, tibbiyot va raqamli texnologiyalarning jadal rivoji barcha fanlar uchun yuksak mas‘uliyati, huquq normalarini hayotda mustaqil qo‘llashga va boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishga o‘rgatish, mustaqil o‘qish, izlanish, tarixiy, ma‘naviy, huquqiy manbalarni o‘rganish asosida to‘laqonli bilim va tasavvurlarga, nazariy bilimlarga ega bo‘lish, mavzular bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: huquqiy bilimlarini mustahkamlashga, yurtimizda barcha sohalarda, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlari, yuksak axloqiy qadriyatlar bilan birga huquqiy madaniyatga ega bo‘lishiga, o‘zi yoqtirgan kasbni tanlab, mustaqil hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish.

Rivojlantiruvchi: mazkur huquq va erkinliklarni yetarli darajada himoya qila olish madaniyatini shakllantirish davlat va huquq asoslari fani zimmasiga tushishi xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o‘rgatish, fanga qiziqishini ortirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Kommunikativlik kompetensiyasi:

o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud axborot manbalaridan foydalana olish; axborotga ega bo‘lish, uni tasarruf etish va uni tarqatish qoidalariga rioya qilish.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.


II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Inson huquqlari insoniyat tafakkuri va sivilizatsiyasi e‘tirof etgan qadriyatdir.

Inson huquqlari insoniyat tarixiy taraqqiyotining umumiy yutug‘i bo‘lish bilan birga, jahon hamjamiyatining dolzarb muammolaridan biriga aylanib qoldi. Insonning shaxsiy

daxlsizligini himoya qilish, ekologik xavflardan xoli muhit yaratish, insoniyatga kulfatlar keltiruvchi urush ofatlaridan xalos qilish xalqaro miqyosdagi asosiy maqsadga aylangan. Shu bois bugun demokratik rivojlanish yo‘lidagi har qanday davlatning konstitutsiyaviy asosini inson huquqlari va erkinliklari tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham barchaning qonun oldida tengligi, shaxs manfaatlarining davlat manfaatlariga nisbatan ustuvorligi, davlatning inson va jamiyat farovonligi uchun xizmat qilish majburiyati kabi masalalarga katta e‘tibor qaratilgan. Erkinlik inson uchun oliy ne‘mat bo‘lib, uning qonunda taqiqlanmagan har qanday ishni qila olishidir. Inson huquqlari insonning jamiyatda mavjudligi bilan belgilanadigan hamda huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan tabiiy va buzilmas erkinliklari, yuridik imkoniyatlari yig‘indisi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo‘limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari masalalariga bag‘ishlangan.



Qadimgi yunon faylasufi Protagorning “Barcha ashyolarning mezoni insondir” degan fikrining zamirida insonparvarlik g‘oyasi yotadi. Antik davrning ko‘plab olimlari barcha kishilarning tabiatan tengligi g‘oyasini ilgari surganlar, insonlarning ozod kishilar va qullarga bo‘linishiga salbiy munosabatda bo‘lganlar. Bu g‘oyalar o‘z davrida g‘oyaligicha qolib ketgan bo‘lsa-da, o‘rta asrlarda va keyinchalik ilgari surilgan ilg‘or qarashlar, inson huquqlariga oid huquqiy tizimlarning yaratilishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Inson qaysi davlat fuqarosi bo‘lishidan qat’i nazar, dunyoga kelishi bilan tabiiy huquqlarga ega bo‘ladi. Shunday ekan, inson huquqlari tug‘ilish bilan vujudga keladigan tabiiy huquqlarga va davlat tomonidan o‘z fuqarolariga qo‘shimcha ravishda beriladigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga bo‘linadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Inson huquqlari va erkinliklari deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun har qanday davlatning konstitutsiyaviy asosini inson huquq va erkinliklari tashkil etadi?
3. Konstitutsiyamizda inson huquq va erkinliklari mazmuni hamda bajarilish sohalari bo‘yicha qanday turlarga bo‘linadi?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: Shaxsiy huquq va erkinliklar

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: darsda ayni paytda dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning muttasil o'zgarib borishi hamda integratsiyalashuvi, tibbiyot va raqamli texnologiyalarning jadal rivoji barcha fanlar uchun yuksak mas'uliyati, huquq normalarini hayotda mustaqil qo'llashga va boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishga o'rgatish, mustaqil o'qish, izlanish, tarixiy, ma'naviy, huquqiy manbalarni o'rganish asosida to'laqonli bilim va tasavvurlarga, nazariy bilimlarga ega bo'lish, mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda amaliy ko'nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: huquqiy bilimlarini mustahkamlashga, yurtimizda barcha sohalarda, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlari, yuksak axloqiy qadriyatlar bilan birga huquqiy madaniyatga ega bo'lishiga, o'zi yoqtirgan kasbni tanlab, mustaqil hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish.

Rivojlantiruvchi: mazkur huquq va erkinliklarni yetarli darajada himoya qila olish madaniyatini shakllantirish davlat va huquq asoslari fani zimmasiga tushishi xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o'rgatish, fanga qiziqishini ortirish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish; o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish;

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

jamiyatda bo'layotgan voqya, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; ta'lim jarayonida faol ishtirok etish.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

No	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Insonning yashash huquqi, erkinlik huquqi borasidagi g'oyalar insoniyat tarixining ilk davrlaridayoq shakllana boshlagan. Bunday huquqlar uchun hamma davrlarda, turli jamiyatlarda kurashlar bo'lgan. Shaxsiy huquq va erkinliklar inson huquqlari tizimida eng muhim o'rinni egallab, insonning shaxsiy hayotidagi erkinligini ta'minlaydi. Shaxsiy huquq erkinliklar o'z mohiyati bilan har qanday insonning huquqlari hisoblanib, uning qaysi davlat fuqaroligiga mansub ekaniga bog'liq bo'lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga ko‘ra, insonning sha’ni va qadr- qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. Hech kim ustida uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas.



Shaxsiy huquq va erkinliklar inson tug‘ilgan zahoti ega bo‘ladigan, uning asosiy hayotiy ehtiyojlarini ta‘minlaydigan, tabiiy, ajralmas huquqlaridir. Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanini ta‘minlovchi 27-moddada, shuningdek, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emasligi, hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yilishi belgilangan. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan. Mazkur normaning mazmuni 1679-yil Angliyada qabul qilingan Habeas korpus aktiga muvofiq keladi. **Habeas korpus** ingliz jinoyat-protsessual huquqiga tegishli qoida bo‘lib, unga ko‘ra, qamoqqa olingan shaxs yoki uning nomidan boshqa bir fuqaro nima sababdan hibsga olinayotgani yoki qamoqqa olish to‘g‘risidagi hujjat bo‘yicha sudga murojaat qilishi va hibsga olish yoki ushlab turishning qonuniyligini tekshirish uchun maxsus sud qarorini talab qilishi mumkin. Sudning qarori bo‘lmagan taqdirda shaxsni 48 soatdan ortiq ushlab turish mumkin emas. Shaxsiy huquq va erkinliklar tizimida insonlarning mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanishi, turar va yashash joyini tanlash huquqi muhim ahamiyatga ega.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasini yoritib bering.
2. Yashash huquqining ta‘minlanishi deganda nimani tushunasiz?
3. Habeas korpus aktining mohiyati nimadan iborat?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

vab-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. vab-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

37 listdan iborat huquq fanidan 9-sinf II yarim yillik konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**